Milliy soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirishda ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	1272
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari.....	1277
Qorriyeva Shahnoza Safarboyevna	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari.....	1281
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna	
Xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishning ahamiyati va zaruriyati.....	1284
Mirzayev Qulmamat Janzakovich, Djurakulov Shoxrux Baxtiyorovich	
Yog'-moy korxonalarining xom ashyo ta'minotini amalga oshirishning zamonaviy konsepsiyalari.....	1289
Jo'rayeva Nodiraxon Qurbonovna	
O'zbekistonda mulkdorlar sinfini shakllantirishning ilmiy-metodologik yo'nalishlari va rivojlanish bosqichlari.....	1294
Berkinov Bazarbay Berkinovich	
O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlanishi istiqbollari ta'minlash omillari.....	1300
X. I. Boyev	



Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarishda jahon tajribasi.....	1305
Saipova Dilnoza Shuxratovna	
Mintaqa sanoatini innovatsion rivojlantirish indikatorlarining iyerarxiyasi.....	1310
Muhammadiyev Sardorbek Shokir o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy qarorlarni qabul qilishning muhimligi.....	1315
Allayarov Shamsiddin Amanullaevich, Yoqubov Madaminbek Abdurahim o'g'li	
Mehmonxonalarda boshqaruv tizimi va uni takomillashtirish.....	1320
Qalandarova Gulnoza, Botirova Zumrad	
O'zbekistonda maktab va maktabgacha talim tizimini moliyashtirishni takomillashtirish.....	1324
Boltaboyev Murodbek Aybekovich	
Mehnat resurslarini samarali boshqarishda jahon tajribasi.....	1329
Xonnazarova Dilobar Qutbiddin qizi, Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash.....	1333
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
O'zbekiston Respublikasida "Iqtisodiy erkinlik indeksi" ning davlat aralashuvi darajasi yo'nalishida yuqori natija qayd eta olish imkoniyatlari va buning oqibatlari	1337
Qoraboyev Bobur Umarovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich, Ravshanov Shaxriyor Shuhratovich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li	
Improving the Participation of Joint-Stock Companies in the Capital Market.....	1343
Muminov Shohjahon Suyun ugli	
Mamlakatimizda atrof-muhitni himoyalashga ixtisoslashgan ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish shakllari.....	1347
Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
Mahalliy farmatsevtika mahsulotlari bozori va iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish xususiyatlari.....	1353
Bobojonov Baxrombek Ruzimovich	
Soliq va buxgalteriya hisobini yuritishda asosiy vositalar hisobining dolzarb masalalari	1359
Arifxanova Xabiba Shuxratovna	
Institutsional islohotlar sharoitida mamlakatni moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	1365
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Ermo'minov Iskandar Ziyodillayevich	
Mehmonxonalarda xizmat sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari.....	1370
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Resurslar yetishmaydigan hududning investitsion jozibadorligini shakllantirishning uslubiy asoslari.....	1375
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Jahon moliyaviy arxitekturasi va xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo'nalishlari.....	1381
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Karimov G'ayratjon Toxir o'g'li	
"O'zneftgaz" AK tizimidagi korxonalarda joriy aktivlarning sof foyda hajmi va uning o'zgarishiga ta'sirini perespektiv tahlili.....	1386
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Oliy ta'lim tizimi boshqaruvini samaradorligini baholashda sifat menejmenti va uning konseptual asoslari.....	1392
Teshayev Hotamjon Ixtiyor o'g'li, Boltayeva Mohichehra Sharipovna	
"Xufiyona iqtisodiyot" ning jamiyatga ta'siri	1397
Mirzayev Zarshed Mirzayevich, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi	
Kichik va o'rta biznes subyektlarini tadbirkorlik qobiliyatini baholashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari...	1400
Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Tijorat banklari valyuta operatsiyalarining me'yoriy-huquqiy asoslari	1404
Beknazarova Nilufar Tulkinovna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizmning o'rni.....	1407
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna	
Tijorat banklarida raqamli transformatsiya jarayoni, undagi muammolar va ularni yechish yo'llari	1411
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna	
Oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari va natijalari.....	1417
Umarova Xilola Uktamovna	
Korxonalar faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning afzallik va kamchiliklari.....	1426
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li	
Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda xorij mamlakatlarining tajribasi	1430
Raxmonov G'ayrat Ismatulloyevich	
Katta ma'lumotlar (BigData) davrida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni tahlil qilish.....	1434
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Umarova Go'zal Sabirovna	
Investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari	1437
Isakov J. Ya.	
Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish jarayonini rivojlantirishning retseptiv tahlili.....	1444
Raxmonov G'ayrat Ismatulloyevich	
Цифровизация страховой сферы в Республике Узбекистан.....	1449
Шермаматова Ирода Ойбековна	



INVESTITSIYA LOYIHALARINI QO'LLAB- QUVVATLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI



Isakov J. Ya.
TDIU professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishning afzalliklari hamda uni rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida co'z boradi. Shuningdek, mamlakatimizda investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so'zlar: investor, portfel investitsiya, qimmatli qog'ozlar, aksiya, korporativ qimmatli qog'ozlar, obligatsiyalar, moliya bozori, moliyalashtirish usullari.

Abstract: This article will discuss the advantages of improving the mechanism of state support for attracting investments, as well as improving the prospects for its development. The existing problems in the prospects for the development of investment attraction in our country, as well as the author's approaches and proposals for their elimination are also presented.

Key words: investor, portfolio investments, securities, stock market, corporate securities, bonds, financial market, financing methods.

Аннотация: В данной статье пойдет речь о преимуществах совершенствования механизма государственной поддержки привлечения инвестиций, а также об улучшении перспектив его развития. Также представлены существующие проблемы в перспективах развития привлечения инвестиций в нашей стране, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: инвестор, портфельные инвестиции, ценные бумаги, фондовый рынок, корпоративные ценные бумаги, облигации, финансовый рынок, методы финансирования.

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish, xorijiy investorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda investitsiyalar jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash mexanizmini takomillashtirish hukumatning eng muhim vazifalaridan birib bo'lib qolmoqda. Xususan, investitsiya loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish davlat, korxonalar va tashkilotlar hamda butun iqtisodiyot tarmoqlarining muhim vazifalaridan biridir. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va barqarorligini ta'minlashda investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar beqiyos o'rin tutadi. Aytish mumkinki, investitsiyalar iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga kelgusida investitsiyalash manbalarini yaratish hamda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish uchun ham xizmat qiladi. Shunday ekan ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratish naqadar muhim ekanligini mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ham o'z ma'ruzalarida alohida ta'kidlab o'tgan edilar: "... iqtisodiyot o'sishining yuqori sur'atlari va investitsiya resurslariga o'sib borayotgan talabni qanoatlantirish bir-biriga muvofiq emas"¹.

Xususan, investitsiya jarayonlarini rivojlantirish, ularni moliyaviy ta'minlashni hamda investitsiyalar jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash mexanizmlarini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // uza.uz. 16.01.2017.



MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda, investitsiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishning borasida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan hamda tadqiq etilgan. Xususan, Belgiyalik olim Xilbern Boys ning fikricha, "Katta iqtisodiy, mineral xomashyo va inson salohiyatiga ega bo'lgan O'zbekiston xorijiy sarmoyadorlarni, avvalo, mamlakatdagi barqaror siyosiy vaziyat bilan o'ziga jalb etadi. Ushbu mamlakatda tadbiriq etilayotgan barcha yangilanishlar respublikani yanada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va gullab-yashnashiga kafolat bo'ladi"².

Ya.S. Melkumov ishlab chiqarish va tadbirkorlikni rivojlantirishda foyda olish maqsadida investitsiyalarni moliyalashtirishda moliyaviy, mulkiy va intellektual qo'yimalardan samarali foydalanishni tahlil qilgan³. Muallif bu yerda investitsiyalarni daromad manbai sifatida o'rganib, investitsiya faoliyatining turlarini ko'rsatib bergan. Bu yerda bahsga sabab bo'layotgan holat investitsiya obyektlarining turlari. Bu haqda boshqa ilmiy ishlarimizda fikr yuritilgan.

S.V. Valdaysev va P.P. Vorobev tomonidan chop etilgan darslikda ijtimoiy sohani investitsiyalashda moliyalashtirish manbalari tahlil qilinadi. Ijtimoiy daromad olish jarayonlariga sarflangan pul mablag'lari kelajakda yanada yuqoriroq daromad yoki ijtimoiy samara topishdan iborat degan xulosaga kelinadi⁴. Bu yerda mualliflar investitsiyalarni ijtimoiy sohalarga yunaltirish bu real investitsiyalarga nisbatan kattaroq foyda keltirish manbai ekanligini uqtirmoqchi bo'layapti. To'g'ri, misol uchun ta'limga qilingan investitsiya xuddi shunga misol bo'la oladi.

V.Berens, P.Xavranekslarning fikricha, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda investitsion loyihalarning samaradorligini baholashga asoslangan, ularni o'zaro taqqoslay oladigan usullar keng qo'llaniladi. Mazkur va boshqalar o'z ilmiy asarlarida investitsiya loyihalari samaradorligini quyidagicha izohlaganlar: "Investitsiya loyihalarining samaradorligi - loyihaning uning ishtirokchilarini maqsadi va qiziqishlariga muvofiqligini ko'rsatib beruvchi kategoriya hisoblanadi". Shunga ko'ra, loyihaning samaradorligini butunligicha baholash, shuningdek loyihada qatnashuvchi har bir ishtirokchining samarasini aniqlash talab etiladi⁵.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mintaqalarni kompleks rivojlantirish bo'yicha investitsiyalardan samarali foydalanish va investitsiya dasturlarini puxta ishlab chiqish yuzasidan tarkibiy islohotlar amalga oshirilmoqda. O'z navbatida mintaqalar o'rtasidagi ijtimoiy-tafovutni yumshatish, ular iqtisodiyotiga mahalliy tadbirkorlar mablag'lari, aholi jamg'armalari va chet el investitsiyalarini faol jalb qilish iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan⁶. Shu sababli mintaqalarda mavjud salohiyatlardan samarali foydalanish asosida mintaqalar iqtisodiyoti barqaror o'sishini ta'minlash, hududlar iqtisodiy salohiyatini hamda ishlab chiqarish va investitsiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini aniqlash muhimdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa usullardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy mamlakatlarda investitsiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buguni kunda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etish, hududlarda, ayniqsa, mahallalarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yanada rivojlantirish, shuningdek, aholining turmush darajasini oshirish hamda tadbirkorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish yuzasidan jadal ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan obyektlarni loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash ishlarining manzilli ro'yxatlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda olib borilmoqda. Konsolidatsiyalashgan budjet mablag'lari va boshqa markazlashgan manbalar hisobidan moliyalashtirish manbai aniq bo'lmagan, loyiha (loyihaoldi) hujjatlari mavjud bo'lmagan (yoki loyiha

2 Xilbern Boys O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. №3/2011 y. -19 b

3 Melkumov Ya.S. Инвестиций. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2003. – С.8.

4 Инвестиции: Учебник /С.В.Валдайцев, П.П. Воробьев и др.; Под ред. В.В. Ковалева, В.В. Иванова, В.А. Лялина. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2003. С.17

5 Беренс В., Хавранек П., Руководство по подготовке промышленных технико-экономических исследований. М.: Интерэксперт, 1995. 343 с.

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60 sonli Farmoni.



hujjatlari parallel ravishda ishlab chiqilayotgan) hamda pudrat (loyiha) tashkilotlari tanlov (tender) o'tkazilmasdan tanlab olingan loyihalarga (obyektlarga) xarajatlar amalga oshirilmasligi belgilab qo'yilgan.

Mamlakat iqtisodiyotiga sarmoya kiritishning jozibadorligi va maqsadga muvofiqligini belgilaydigan va tavakkalchilik darajasini pasaytirishga yordam beradigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy va huquqiy, tabiiy va boshqa shart-sharoitlar to'plami mamlakatda yaratilgan investitsiya muhitining rivojlanganligi qay darajada ekanligidan dalolat beradi. Yuqoridagi holatlarni e'tiborga olgan holda, Prezidentimiz tomonidan 2020-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2021–2023-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 4937-sonli qarori qabul qilindi.

1-jadval: 2023-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy parametrlari hamda 2024-2025 yillar uchun maqsadli mo'ljallar, mlrd. so'm⁷

№	Mablag'lardan foydalanish yo'nalishlari	2023–2025-yillar, reja	shu jumladan:		
			2023-yil reja	2024-yil	2025-yil
	Jami	55 833,0	15 520,0	18 424,5	21 888,6
I	Ijtimoiy sohalar	19 413,3	5 370,0	6 399,0	7 644,3
II	Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari	4 690,1	1 300,0	1 547,5	1 842,6
III	Yo'l-transport infratuzilmasi	8 252,3	2 280,0	2 722,0	3 250,3
IV	Irrigatsiya va melioratsiya	4 167,0	1 200,0	1 380,0	1 587,0
V	Maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalar, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalar hamda yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash	4 514,3	1300,0	1 495,0	1 719,3
VI	Hududiy, muhandislik-infratuzilma, shuningdek alohida muhim va toifalangan obyektlarni qurish hamda rekonstruksiya qilish	4 901,4	1 192,9	1 601,9	2 106,6
VII	Boshqa yo'nalishlar, shu jumladan:	6 501,7	1 900,0	2 155,5	2 446,3
1.	Yopiq qism	4 545,5	1 309,0	1 505,4	1 731,2
2.	Mudofaa va huquqni muhofaza qiluvchi organlar	1 956,2	591,0	650,1	715,1
VIII	Turizm obyektlari atrofidagi yer maydonlari, suv va yo'l infratuzilmalarini yaxshilash	972,3	280,0	322,0	370,3
IX	"Yangi O'zbekiston" massivlarida barpo etiladigan infratuzilma obyektlari uchun	2 420,6	697,1	801,6	921,9

Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, mazkur yillar davomida mablag'lardan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha jami rejaga asosan 55 833,0 mlrd. so'm ajratilishi rejalashtirilgan. Bunda asosiy o'rinni ijtimoiy sohalariga 19 413,3 mlrd. so'm, keyingi o'rinda yo'l-transport infratuzilmasi uchun 8 252,3 mlrd. so'm hamda hududiy, muhandislik-infratuzilma, shuningdek alohida muhim va toifalangan obyektlarni qurish hamda rekonstruksiya qilishga esa 4 901,4 mlrd. so'm ajratilishi ko'zda tutilmoqda. Bunda, tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish jamg'armalari va mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan kichik sanoat zonalar hamda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash tadbirlariga yo'naltiriladigan 348,7 mlrd so'm hisobga olinmagan. Tahlillardan ko'rishimiz mumkinki mamlakatimizda ijtimoiy sohalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, xususan, umumta'lim maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, sog'liqni saqlash va tibbiy-ijtimoiy muassasalar, oliy ta'lim muassasalari, sportni rivojlantirish obyektlari, madaniyat va san'at, ilm-fan va innovatsiya kabi yo'nalishlarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlashga investitsiyalar kiritish mo'ljallanmoqda.

So'nggi yillarda investitsiyalarning o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, 2019-yilgacha o'sib borgani va 138,1 foizga yetgani, 2020-yilda keskin tushgani – 95,6 foiz hamda hozirgi davrgacha yana o'sish tendensiyasiga ega bo'layotganini ko'rish mumkin – 100,9 foiz. (1-rasmga qarang)

⁷ <https://lex.uz/docs/6333021#6339727> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2022-yildagi PQ-465-sonli qarori asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.



1-rasm: Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari dinamikasi, foizda⁸

Asosiy kapitalga investitsiyalar – yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi. So'nggi 6 yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli 4 marta ko'payib, o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda.

Davlat budjeti hisobidan investitsiya faoliyatini amalga oshirishda ustuvor tarmoqlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qisqarishi davlat investitsiya siyosatining e'tibori xususiy tuzilmalar: korxonalar, banklar va aholi zimmasiga ko'chishini shart qilib qo'yishi tabiiydir. Biroq, hozircha xususiy sektordagi investitsiya faoliyati subyektlari miqdori va soni ortganiga qaramay, ularning investitsiya faoliyatidagi o'rnini va mavqei davlatning iqtisodiyotdagi roli va o'rnini bosa olmayapti.

Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish tizimining asta-sekin nodavlat sektori zimmasiga o'zgarishi o'z navbatida xususiy, jamoa, qo'shma korxonalarini tashkil qilish va rivojlantirish hamda investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarining tarkibiy tasnifiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.



2-rasm: Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilgan mablag'lar⁹

Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning 59,1 foizi yoki 159,6 trln. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 40,9 foiz yoki 110,3 trln. so'm moliyalashtirilgan. Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2021-yilga nisbatan 3,8 foiz punktga kamayib, 15,4 foizni yoki 41,5 trln. so'mni tashkil etgan. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 228,4 trln. so'm yoki jami investitsiyalarning 84,6 foiz investitsiyalari o'zlashtirilib, 2021-yilga nisbatan 3,8 foiz punktga ko'paygan.

O'zbekiston sharoitida esa davlatning investitsiya jarayoniga aralashuvi dolzarb va zarurat bo'lib qolaveradi. Biroq, davlatning investitsiya faoliyatidagi ishtiroki turli shaklda, masalan, investitsiyalashning markazlashmagan va xususiy moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish va ular faoliyatini rag'batlantirish asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YAIM) 2023-yilning 1-choragida 5,5 foizga o'sdi. Qo'shni mamlakatlarda YAIMning o'sish sur'atlari yanvar-mart oylarida o'tgan yilning dastlabki 3 oyiga nisbatan tezlashdi. Shunday qilib, Qozog'istonda iqtisodiyot 4,9 foizga, Qirg'izistonda 4,6 foizga o'sdi. Xitoyda YAIM o'sishi 4,5 foizni tashkil etdi. Rossiya Federatsiyasi Iqtisodiy rivojlanish vazirligining hisob-kitoblariga ko'ra, yanvar-fevral oylarida Rossiya yalpi ichki mahsuloti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,2 foizga kamaydi, inflyatsiya sekinlashdi, yil boshidan beri narxlar 1,7 foizga oshganligini kuzatishimiz mumkin.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari



3-rasm: O'zbekiston Respublikasining 2023-yil birinchi choragidagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari¹⁰

Yuqoridagi rasm ma'lumotlariga ko'ra 2023-yilning dastlabki 3 oyida O'zbekistonda inflyatsiya 2022 yilning yanvar-mart oylaridagi 2,9 foizdan 2,4 foizgacha pasaydi. Oziq-ovqat mahsulotlari narxi asosan 3,4 foiz (2022-yil yanvar-mart oylarida - 4,4 foiz), nooziq-ovqat mahsulotlari narxi 1,6 foiz (2,1 foiz), pullik xizmatlar narxi 1,6 foiz (1,5 foiz)ga o'sgan.

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining o'sish sur'ati esa (2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 26,3 foiz) 3,1 foizgacha sekinlashdi. O'sish budjet mablag'lari hisobidan investitsiya hajmining 2,1 barobarga sezilarli o'sishi, shuningdek, jalb etilgan xorijiy investitsiyalar va davlat kafolati ostida olingan kreditlar hajmining 22 foizga o'sishi bilan bog'liq. Markazlashtirilmagan investitsiyalar orasida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 37 foizga o'sishi kuzatilmoqda. Umuman olganda, 1-chorak yakunlariga ko'ra, markazlashtirilgan investitsiyalar ulushi investitsiyalar umumiy hajmining 10 foiz, markazlashtirilmagan investitsiyalar ulushi – 90 foizni tashkil etgan.

Yanvar-mart oylarida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida o'sish kuzatildi, ammo 2022-yilning 1-choragiga nisbatan sanoat, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalarida o'sish sur'atlari sekinlashdi.

2023-yilning dastlabki uch oyida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 4,1foizga oshdi (2022-yil yanvar-mart oylarida – 5,7 foiz). Eng katta o'sish elektr energiyasi, gaz ta'minoti, bug' va havoni tozalash tarmog'ida-5,4 foiz qayd etildi. Ko'rib chiqilayotgan davrda mahsulot ishlab chiqarish hajmi 4,3 foizga oshdi. Tog'-kon sanoatida o'sish sur'ati 2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 2 foizgacha tezlashdi (0,8 foiz). Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sishi 2022-yilning 1-choragida 24 foizdan 2023-yilning birinchi 3 oyida 5,1 foizgacha sekinlashdi.

Umuman olganda, salbiy ta'sir ko'rsatgan ko'plab tashqi va ichki muammolarga qaramay, O'zbekiston iqtisodiyoti 2023-yilning 1-choragida barqarorlikni namoyish etdi va yuqori o'sish sur'atlari saqlab qolindi.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishi sharoitida tijorat banklari faoliyatini yanada takomillashtirish, jumladan, mijozlarning kredit va investitsiyaga bo'lgan talabini qondirish, aktivlarni kredit va operatsion risklardan himoya qilish zaruriy shartlardan bo'lib hisoblanmoqda. Bugungi kunda tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta'minlash, bu borada banklarning investitsiya portfelini samarali boshqarish tijorat banklarining muhim vazifalaridan biri bo'lib bormoqda. Jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lgan "Banks around the World" va "S&P Global Market Intelligence" nashrlarining hisobotlariga ko'ra quyidagi fikrlar keltirib o'tilgan, "Tijorat banklarining investitsiya portfelni boshqarish tijorat bankining muayyan sharoitlariga to'g'ridan to'g'ri qo'llashdan kelib chiqadi. Investitsiya portfelni boshqarish deganda daromad yoki foyda, likvidlilik va xavfsizlik, hamda investitsiyalarni yo'naltirishning maqbul kombinatsiyasini izlash uchun bank aktivlari va majburiyatlarini oqilona boshqarish tushuniladi".

10 <https://review.uz/post/infografika-2023-yil-1-choragida-ozbekiston-iqtisodiyotining-rivojlanishi>



Yaqinda Jahon banki ham O'zbekiston iqtisodiyoti o'sishi bo'yicha o'z kutilmalarini 5,3 foizga, XVF esa 5,2 foizga oshirdi. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi esa birinchi yarim yillikda iqtisodiy o'sish yanada ishonchli 5,65 foiz bo'lishini kutmoqda. Shulardan kelib chiqsak, O'zbekiston iqtisodiyoti va uning rivojlanish istiqbollari juda jozibali ko'rinishga ega, bu esa investorlarning mamlakatimizga qiziqishini yanada oshirmoqda.

Davlatimiz rahbari II Toshkent xalqaro investitsiya forumigi nutqida O'zbekiston bilan hamkorlikni kengaytirish borasidagi yangi imkoniyatlarga to'xtalib o'tdi.

Birinchi, "yashil iqtisodiyot". Mamlakatimizda jahonning eng nufuzli kompaniyalari quyosh va shamol elektr stansiyalari loyihalarini amalga oshirmoqda. Shu yilning o'zida 2 ming megavatt dan ziyod, keyingi yilda esa, 8 ming Megavattli quvvatlar ishga tushadi.

"Yashil iqtisodiyot" sanoatning yangi yo'nalishlariga ham turtki bermoqda. Bu – investorlar uchun 8 milliard dollarlik imkoniyat, degani.

Ikkinchi yo'nalish, davlat-xususiy sheriklik. Islohotlar natijasida, oldinlari "yopiq" bo'lgan tarmoqlarga xususiy investitsiyalar faol kirib kelmoqda. Masalan, avval 100 foiz davlat tarmog'i hisoblangan aviatsiya sohasida xususiy sektorga keng yo'l ochildi. Shu bilan birga, tez o'sib kelayotgan axborot texnologiyalari, turizm, ta'lim, tibbiyot kabi sohalarda O'zbekiston mintaqaviy xabga aylanib bormoqda.

Umuman, bu yil davlat-xususiy sheriklikni joriy qilish bo'yicha 14 milliard dollarlik alohida dasturlar ishlab chiqilgan. Ular davlat uchun muhim bo'lgan transport, kommunal va suv xo'jaligi, sog'liqni saqlash kabi tarmoqlarni qamrab olgan.

Uchinchi yo'nalish, davlat mulkini xususiylashtirish. Joriy yilda bu bo'yicha "1 ming, 1 ming, 40" dasturi qabul qilindi. Ya'ni, mingta korxonadagi davlat ulushlari hamda yana mingta davlatga tegishli ko'chmas mulk obyektlari ochiq auksion savdolariga chiqariladi, 40 ta strategik korxonaga "IPO"ga olib chiqiladi.

To'rtinchi yo'nalish, industrial rivojlanish. Bugungi kunda O'zbekiston to'qimachilik, charm-poyabzal, qurilish materiallari, elektr texnikasi, mashinasozlik tarmoqlarida yetarli xomashyo va malakali kadrlarga ega. Bu sohalarda ishlab chiqarish va eksportni 2 barobar oshirish uchun yetarli imkoniyatlar bor. Buning uchun yirik brendlar bilan hamkorlik, tashqi bozorlarga chiqish, innovatsiya va zamonaviy texnologiyalar kerak.

Beshinchi yo'nalish, qo'shni davlatlar bilan hamkorlik. Hozirda qo'shma investitsiya fondlari tashkil qilinib, sanoat, energetika, transport va suv xo'jaligi sohalarida yirik mintaqaviy loyihalar amalga oshirilmoqda. Mamlakatlarimiz iqtisodiyoti bir-birini to'ldirishini inobatga olib, sanoat va agro kooperatsiyalarini davom ettirish zarur.

Prezidentimiz O'zbekiston investorlar uchun huquqiy kafolat, alohida texnopark va sanoat zonalari, qo'shimcha imtiyozlar berishga tayyorligini bildirdi.

Bu esa xorijiy investorlarning investitsiyaviy hamkorlik borasida ishonchli sherik bo'lmish O'zbekistonga qiziqishi izchil ortib borayotganini yaqqol namoyon etadi.

XULOSA VA TAKDIQLAR

Investitsiya faoliyatni rag'batlantirish va investitsiyalar jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmini joriy etishda hududiy loyiha guruhlarini shakllantirishni jadallashtirish hamda ularning tuman va shahar hokimlarining tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha har bir mahallada faoliyat yuritayotgan yordamchilari bilan yaqin hamkorligini yo'lga qo'yish ishlari amalga oshirilmoqda.

Ammo masalaning ikkinchi tomoni, ya'ni aksariyat investitsiyalar jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda muvaffaqiyatsizlikka uchrash holatlari kuzatilmoqda. Investitsiya loyihasining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan to'liq asoslanmaganligi yoki moliyalashtirish samaradorligi amaliy baholanib, tahlil jarayonlari to'liq amalga oshirilmayotganligi buning asosiy sabablari sifatida qarash mumkin.

Mamlakatimizda biznes va investitsiyalar yo'lidagi turli to'siqlar olib tashlanib, ochiq va qat'iy siyosat olib borilmoqda. Bu esa mamlakatimizning Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki kabi yirik xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yishida hamda investitsiyalar jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini rivojlantirishda muhim omil bo'lmoqda. Olib borilayotgan faol tashqi siyosat natijasida respublikamizga investitsiya kiritayotgan mamlakatlar geografiyasi ham kengaymoqda.

Respublikamizda investitsiyalar jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish masalasini yangidan amalga oshirilayotgan loyiha jarayonlarida bevosita ishtirok etish, loyihalarni kompleks baholash standartlarni ishlab chiqishni davom ettirish maqsadga muvofiq.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda O'PQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60 sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // uza.uz. 16.01.2017.
4. Xilbern Boys O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. №3/2011-y. -19 b
5. Мелкумов Я.С. Инвестиций. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2003. – С.8.
6. Инвестиции: Учебник /С.В.Валдайцев, П.П. Воробьев и др.; Под ред. В.В. Ковалева, В.В. Иванова, В.А. Лялина. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2003. С.17.
7. Беренс В., Хавранек П., Руководство по подготовке промышленных технико-экономических исследований. М.: Интерэксперт, 1995. 343 с.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

